



## TEMURIYLAR DAVRI O‘ZBEK ADABIYOTI ABDUQODIR HAYITMETOV TALQINIDA

**Muallif:** Barotova Xurshida Jalolovna <sup>1</sup>

**Affiliyatsiya:** Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti, Ijtimoiy fanlar kafedrası v.b. dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) <sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20196651>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Temuriylar davri o‘zbek adabiyotining ilmiy talqini mashhur adabiyotshunos olim Abduqodir Hayitmetov qarashlari asosida tahlil qilinadi. Olimning temuriylar davri madaniy muhiti, adabiy jarayon, shoirlar faoliyati hamda adabiyotning ijtimoiy-ma’naviy ahamiyati haqidagi ilmiy xulosalari yoritiladi. Shuningdek, Hayitmetovning Alisher Navoiy davri adabiy muhitini baholashdagi ilmiy metodologiyasi ham ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** Temuriylar davri, o‘zbek adabiyoti, adabiy muhit, Abduqodir Hayitmetov, Alisher Navoiy, temuriylar madaniyati, adabiy meros.

### KIRISH

Temuriylar davri Sharq uyg‘onish davrining muhim bosqichlaridan biri sifatida nafaqat siyosiy va madaniy hayotda, balki adabiyot taraqqiyotida ham alohida o‘rin egallaydi. XIV–XV asrlarda Movarounnahr va Xuroson hududida yuzaga kelgan yuksak madaniy muhit ko‘plab shoir va olimlarning yetishib chiqishiga zamin yaratdi. Bu davr adabiyoti o‘zining badiiy yuksakligi, g‘oyaviy mazmuni hamda til taraqqiyotiga qo‘shgan hissi bilan alohida ahamiyatga ega.

O‘zbek adabiyotshunosligi tarixida Temuriylar davri adabiyotini ilmiy o‘rganish hamda tadqiqotlar yaratishda bir qator olimlar katta hissa qo‘shgan. Ular orasida Abduqodir Hayitmetovning ilmiy tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Olim temuriylar davri adabiy muhitini tarixiy, estetik va adabiy jarayon nuqtai nazaridan chuqur tahlil qilgan.

Abduqodir Hayitmetov o‘zbek adabiyotshunosligida mumtoz adabiyot tarixini o‘rganishda muhim ilmiy maktab yaratgan olimlardan biridir. Uning ilmiy ishlarida temuriylar davri adabiyoti alohida o‘rin egallaydi. Olim bu davrni o‘zbek va turkiy adabiyot taraqqiyotining eng muhim bosqichlaridan biri sifatida baholaydi.

Hayitmetovning ta’kidlashicha, Temuriylar davrida ilm-fan, san’at va adabiyotning rivojlanishi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Olimning “Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti” nomli tadqiqotlar, maqolalar, lavhalar jamlanmasidan tashkil topgan kitobida o‘zbek adabiyotining XV asrdagi taraqqiyot yo‘llari, temuriy hukmdorlar, xususan, Amir Temur, Ulug‘bek Mirzo, Boysung‘ur Mirzo, Husayn Boyqaro kabilarning o‘rni shu davr ijodkorlaridan Abdurahmon Jomiy, Mavlono Lutfiy, Yusuf Amiriy meroslarining o‘ziga xos xususiyatlari, yangi muallif – Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asari, Alisher Navoiy “Xamsa”si va islom ta’limoti masalasi, ulug‘ shoir g‘azallarida ma’no va badiyat birligining anvoyi



ko'rinishlari, yangi manbalar hamda yangicha qarashlar asosida tahlil va talqin etilgan. Kitobda Amir Temur va uning avlodlari ilm ahliga, shoir va olimlarga katta e'tibor qaratganligi, natijada Samarqand va Hirot shaharlari Sharq madaniyatining yirik markazlariga aylanganligi alohida ta'kidlangan. Olim temuriylar davri adabiy muhitini tahlil qilar ekan, bu davrda turkiy tilda ijod qilgan shoirlar faoliyati ayniqsa, muhim ekanini ta'kidlaydi. Bu jarayon o'zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishida katta rol o'ynagan. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, XIV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda temuriylar davlatining yuzaga kelishi, mo'g'ul hukmronligining uzil-kesil tugatilishi – shu hududda yashovchi barcha xalqlarning bir davlat atrofida birlashishga, ijtimoiy-siyosiy hayotning ko'p hollarda barqarorlashuviga, madaniy hayotning qayta tiklanishi va rivojlanishiga olib keldi. Bu davlatning asoschisi Amir Temur Tarag'ay (1336—1405) Samarqandni o'ziga poytaxt qilib, yangi hokimiyatni mustahkamlash, uning chegaralarini kengaytirish jarayonida xo'jalik hayotini, dehqonchilikni, savdo-sotiq ishlarini yo'lga qo'yishga, ayni vaqtda obodonchilikka, fan va madaniyat sohalarini jonlantirishga ham katta ahamiyat berdi. U kosib va hunarmandlarni, ilm kishilarini qo'llab-quvvatladi. Urushlar davomida bo'ysundirilgan mamlakatlardagi imorat ustalarini, olimlarni Movarounnahrqa olib keldi. Bu vaqtda Samarqand, Shahrisabz, Turkiston kabi shaharlarda tengi yo'q qurilishlarni amalga oshirdi. Uning davrida Movarounnahr Xuroson bilan birlashib, yagona bir buyuk davlatning asosini tashkil etdi. Shu vaqtdan boshlab Xurosonda ham o'zbek tili, adabiyoti va madaniyatining mavqei orta bordi. Bu yerdagi turkiyzabon xalqlar va ularning ziyolilarni Samarqand, Buxoro, Turkiston va boshqa shaharlardagi olimlar, shoirlar va san'atkorlar bilan o'zaro juda yaqin munosabatda bo'ldi. Amir Temur ibratli fikrlari jamlanmasi "Temur tuzuklari"ga nazar tashlanganda, buyuk sarkardaning nafaqat harb ishiga ixlosi, jumladan, ilm-fan homiysi ekanining yana bir bor guvohi bo'lamiz. "To'qqizinchi toifa — muhaddislar, payg'ambar, uning avlodlari va sahobalari haqida rivoyatlar, naql qiluvchilar (tarixchilar) hamda qissaxonlar bo'lib, ularni ham o'zimga yaqinlashtirdim. Payg'ambarlar va avliyolar haqidagi qissalarni, o'tgan podshohlar to'g'risidagi xabarlarni, ularning saltanat taxtiga qanday yetishganliklarini, davlatlarining qanday sabablarga ko'ra zavol topganligini bulardan so'rab bilardim. Har qaysisining qissalari va xabarlari, ishlari va so'zlarini eshitib, tajribam ortdi. Olamda bo'layotgan voqealarni ulardan eshitardim va olam ahvolidan xabar topar edim" [1:66]. Ushbu tuzuk zamiridagi haqiqat shuki, Amir Temur ilm ahllariga yuksak ehtirom saqlagan. Saroyida bir qancha qissaxon-u, shoirlarga ijod erkinligini berib, ularga yaxshi sharoitlar hozirlagan. Akademik olim V.V. Bartold o'zining "Tarixi Xoniy" asarida Amir Temur saroyidagi qissaxonlarni "uyg'ur baxshilari" deb atagan.

Abduqodir Hayitmetov temuriylar davri adabiyotini tahlil qilishda, avvalo, Alisher Navoiy ijodiga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, Navoiy nafaqat buyuk shoir, balki butun bir adabiy muhitni shakllantirgan ulkan madaniy arbobdir.

Hayitmetov Navoiy ijodini o'rganar ekan, uning turkiy til imkoniyatlarini kengaytirganini alohida ta'kidlaydi. Abduqodir Hayitmetov ilmiy maqolalarining birida shunday deb yozadi: "Amir Temur nozikta'b inson, go'zallikni chuqur his etadigan, adabiyot va san'atning qadriga yetadigan zot ham edi. Uning badiiy adabiyotga munosabati shu paytgacha maxsus o'rganilmagan. Bunga oydinlik kiritishda bizga birinchi ko'makdosh Alisher Navoiydir. Adabiyot tarixining buyuk bilimdoni, xususan, temuriylar tarixini yaxshi bilgan Navoiy o'zining "Majolisun-nafois" tazkirasida bu davrda yetishgan va ijod qilgan ijodkorlarga batafsil to'xtab o'tgan"

[2:13]. Navoiy o'z asarlari orqali turkiy tilning badiiy imkoniyatlarini namoyish etgan va uni yuksak adabiy til darajasiga ko'targan. Shuningdek, olim Navoiy davrida shakllangan adabiy muhitni ham keng tahlil qiladi. Abduqodir Hayitmetovning "Temuriylar davri o'zbek adabiyoti" kitobida Hazrat Navoiyning ijodiy faoliyati quyidagicha tasvirlanadi: "Sohibqiron Temur va uning avlodlari adabiyot va san'atga, ilm-fanga yaqin kishilar edi. Navoiy "Majolisun-nafois" tazkirasida ulardan 22 temuriy ijodkorlarning ism-shariflarini zikr etib, qisqa-qisqa to'xtalib o'tgan. Sulton Husayn Boyqaro ijodi va devoni tahliliga u maxsus sakkizinchi bob ("majlis")ni bag'ishlagan. Navoiy zikr etgan bu shoirlar orasida Xalil Sulton, Ulug'bek Mirzo, Boysung'ur Mirzo, Abulqosim Bobur Mirzo, Shoh G'arib Mirzo va boshqalar bor. Ular hammasi o'zlari she'r yozish bilan birga she'r ahllariga homiylik ham qilganlar. "Majma'ul-axbor", "Gulshani roz", "Haqiqatnoma", "Sadoqatnoma" kabi nasihatnoma mazmunidagi dostonlar muallifi Sayyid Qosimiy Abu Said Mirzoga yaqin turib ijod etgan. Xalil Sulton, Husayn Boyqaro kabilar o'z she'rlaridan devon tuzganlari ma'lum" [2:5].

Temuriylar davrida ilm-fan va renessans o'chog'i hisoblangan Xurosonda, Husayn Boyqaro saroyida ko'plab shoir va olimlar faoliyat yuritgan. Adabiyot, san'at va ilm-fan rivoji uchun vazir Alisher Navoiy tavsiyasi, Husayn Boyqaro podshoh farmoni bilan saroyda qulay sharoit yaratilgan. Bu davrda Xurosonda, Navoiy qayd etishicha, o'zbek tilida asar yozuvchi (turkigo'y) shoirlardan Mavlono Lutfiy, Mavlono Atoyi, Mavlono Amiriy, Mavlono Yaqiniy, Mavlono Gadoyi, Mavlono Muqimiy, Mavlono Latifiy, Haydar Xorazmiy, Durbek, Sayyid Hasan Ardasher, Ahmadiy kabilar yashab, faoliyat yuritganlar [4:198]. Abduqodir Hayitmetovning ilmiy izlanishlari shu izlanishlar natijasi o'laroq, Hofiz Xorazmiy, Sayyid Qosimiylar ham Xuroson hududida yashab, o'zlaridan boy adabiy meros qoldirganlar. Haydar Xorazmiyning "Gulshani asror" dostonidan tashqari "Gul va Navro'z" dostonini yaratganligi alohida ta'kidlanadi. Hayitmetovning ilmiy qarashlariga ko'ra, temuriylar davri adabiyotining bir necha muhim xususiyatlari mavjud:

1. Badiiy yuksaklik va poetik mukammallik.
2. G'oyaviy-tarbiyaviy mazmunning ustuvorligi.
3. Turkiy tilning adabiy til sifatida mustahkamlanishi.
4. Adabiyotning jamiyat hayoti bilan uzviy bog'liqligi.

Olim temuriylar davri adabiyotini Sharq uyg'onish davrining muhim tarkibiy qismi sifatida baholaydi. Unga ko'ra, temuriylar davrida yaratilgan adabiy asarlar keyingi asrlar adabiy taraqqiyotiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, XV asrning ikkinchi yarmi o'zbek adabiyotining eng rivojlangan davri bo'lib, bu yuksalish temuriylardan 1469-yildan 1506-yil orasida podshohlik qilgan Sulton Husayn Boyqaro hamda o'zbek adabiyotining yetuk vakili Alisher Navoiy nomlari bilan bog'liq. Bu davrda **adabiyot va ilm-fan badiiy yuksaklik va poetik mukammallik** bosqichiga ko'tarildi. Husayn Boyqaro 40 yillik hukmronligi davrida Xurosonda adabiyot, san'at va fanning ko'p sohalari, xususan, she'riyat, madaniyat, musiqa ilmi, naqqoshlik, xattotlik, kotiblik, lavohlik, me'morchilik, hunarmandchilik rivojiga katta ahamiyat qaratdi. Saroy shoirlarining faoliyati uchun barcha sharoitlarni yaratib, o'zi ham shoir sifatida "Husayniy" taxallusi bilan ijod qildi. "Devoni Husayniy" aynan shu davrda yaratildi. Husayn Boyqaro mamlakat podshohligi davrida Alisher Navoiyga o'z saroyida muhrdorlik, bosh vazirlik, "muqarrabi hazrati sultoniy" mansablarini berib, uning davlat arbobi sifatida mamlakatni insof va adolat bilan boshqarish, tinchlikni

saqlash, keng miqyosda madaniyatning rivojlanishiga homiylik qilishdek noyob fazilatlaridan foydalanishga intildi. Bu vaqtda Xuroson davlati markazi Hirotda ma'naviy hayotning rivojida sezilarli holatlar kuzatildi. Shu davr fors-tojik adabiyotining yetuk rahnamosi Abdurahmon Jomiy bilan hamkorlikda Alisher Navoiy Hirotda va boshqa shaharlarda ma'naviyat taraqqiyotiga, adabiyot va san'atning, turli fan sohalarining rivojlanishiga hissa qo'shdi [3:115]. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning ijodiy faoliyatida badiiy adabiyot eng buyuk yutuqlarga erishdi. Navoiyning "Xamsa" va "Xazoyinul-maoniy" devoni, Jomiyning "Haft avrang" va she'riy devonlari shu davr adabiyotining eng buyuk namunalari bo'lib, ilm-fan bu davrda poetik mukammal bosqichga ko'tarildi.

Bu davrda yaratilgan asarlarda poetik mukammallik bilan bir qatorda, **g'oyaviy-tarbiyaviy mazmun yetakchi o'ringa** ko'tarildi. "Karim ut-tarafayn" [2:168] temuriy zoda podshoh Husayn Boyqaro davrida nafaqat podshoh, uning o'g'illari ham adabiyotdan uzoqda turmaganlar. Masalan, Badiuzzamon Mirzo, Shoh G'arib Mirzo, Kichik Mirzolardan boshqa qator shahzodalar ham she'r yozganlar va o'z saroylarida boshqa shoirlar bilan hamsuhbat bo'lganlar. Navoiy "Majolis un-nafois" asarida Husayn Boyqaro farzandi Badiuzzamon Mirzoning quyidagi o'zbekcha baytini misol keltirgan:

Ey sabo, gar so'rsa holim shammai ul sarvinoz,  
Evrulub boshig'a men sargashtadin yetkur niyoz,

Podshohning yana Shoh G'arib Mirzo degan o'g'li ham, Navoiy ta'rificha, g'oyatda salohiyatli shoir bo'lgan, forsiy va turkiyda baravar qalam tebratgan.

Qaysi bir gulchehra ul gulbargi xandonimcha bor?  
Qaysi bir shamshodqad sarvi xiromonimcha bor?! [3:121]

Navoiy o'zining "Farhod va Shirin" dostonini podshoh Husayn Boyqaroga bag'ishlagani, doston oxirida podshohga nasihatlar qilib, mamlakatni adolat dastori bilan boshqarishi, Farhod timsoli orqali komil inson g'oyasini keng targ'ib qilgan. "Xamsa" tarkibidagi "Sabba'i Sayyor" dostonida Shoh Bahrom obrazi orqali yurtni adolat tamoyili bilan boshqarish, ishq va havasni mamlakat boshqaruvi dastoridan bo'lak tutish kabi tarbiyaviy mazmun yetakchi o'ringa chiqqan. Navoiyning "Majolisun-nafois" tazkirasida keltirilishicha, bu davrda Shayxim Suhayliy, Muhammad Solih, Binoyi, Sayyid Hasan Ardasher, Mavlono Bilol, Mavlono Kamoliy, Darvesh Nozukiy, Mavlono Tarxoniy, Karimiy Qalandar kabi o'nlab shoirlar ham forsiy, ham turkiyda ijod qilganlar. Ular qalamiga mansub aksariyat, ijod namunalari keyingi avlod uchun g'oyat teran tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan. Xuroson hududida, xususan, Hirotda aholining forsiy zamon qismi ko'pchilikni tashkil etib, bu davrda fors-tojik adabiyoti ham yaxshi rivojlanganligi hamda Abdurahmon Jomiy, Husayn Voiz Koshifiy, Osafiy, Hiloliy, Binoiy, Hotifiy kabi buyuk iste'dod egalari ham mazmunida ham tarbiyaviy g'oyalari yetakchi o'ringa ko'tarilganligini alohida ta'kidlash joiz.

Temuriylar davrida **turkiy tilning adabiy til sifatida mustahkamlanishida** Alisher Navoiyning "Xamsa", "Xazoyinul-maoniy", "Mahbubul-qulub", "Lisonut-tayr", "Majolisun-nafois", "Muhokamatul-lug'atayn", "Nazmul-javohir" kabi asarlari muhim rol o'ynaydi. Bu boy adabiy meros o'zbek adabiyotining keyingi taraqqiyotiga ham

o'zining chuqur ta'sirini ko'rsatdi. Masalan, Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari shu davr o'zbek adabiyoti va ilmining hayotbaxsh an'analari asosida yuzaga kelgan edi [2:12]. Adabiyotshunoslikda temuriylar bilan bog'liq o'zbek adabiyoti tarixi ancha keng va chuqur o'rganilgan. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, bu vaqtda o'zbek adabiyoti, ayniqsa, Navoiy ijodi misolida adabiy janrlar rang-barangligi nuqtai nazaridan ham eng yuksak cho'qqiga ko'tarildi. Bu davrda o'zbek adabiy tili shakllandi. O'zbek nazmi va nasrida o'ziga xos Xuroson uslubi paydo bo'ldi. "Muhokamat ul-lug'attayn" asarida Navoiy o'zbek adabiy tili va adabiyoti uchun sodir bo'lgan kurashga yakun yasadi. Yangi turkiy uslubga asos soldi. Bu adabiy uslubning xususiyatlaridan biri adabiy, ilmiy asarlarda fikr ifodasida forsiy va arabiy so'z hamda iboralardan, atamalardan, forsiy tilga xos jumla tuzilish qoidalaridan keng foydalanildi. Bu hol shu o'lkadagi etnik sharoit ta'sirida yuzaga kelgan edi. [2:12-13]. Temuriylarning adabiyot va madaniyat sohasidagi yaxshi an'alaridan keyinchalik boburiylar tomonidan Afg'oniston va Hindistonda, XVIII-XIX asrlarda Xorazmda, Qo'qon xonligida rivojlantirildi.

Abduqodir Hayitmetovning temuriylar davri adabiyotiga oid tadqiqotlari o'zbek adabiyotshunosligi uchun muhim ilmiy manba hisoblanadi. Olimning ilmiy ishlari orqali bu davr adabiy jarayoni, shoirlar faoliyati va madaniy muhit haqida chuqurroq tasavvur hosil qilish mumkin. Hayitmetovning tadqiqotlari metodologik jihatdan ham muhimdir. U adabiy jarayonni tarixiy sharoit, ijtimoiy muhit va estetik tamoyillar bilan bog'liq holda o'rganadi. Bu esa temuriylar davri adabiyotini kompleks tarzda tahlil qilish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, Abduqodir Hayitmetov temuriylar davri o'zbek adabiyotini ilmiy asosda o'rganib, uning tarixiy va badiiy ahamiyatini chuqur yoritib bergan olimlardan biridir. Uning tadqiqotlari temuriylar davri adabiy muhitini, Alisher Navoiy ijodining o'rni va turkiy adabiyot taraqqiyotini anglashda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi. Temuriylar davri adabiyotimiz o'zbek adabiyoti rivojida o'ziga xos alohida bir bosqichni tashkil etadi. Undagi ulug'vor insonparvarlik va xalqchillik, adolatparvarlik va ma'rifatparvarlik g'oyalari hamon o'z tarovatini yo'qotgani yo'q. Temuriylar davri adabiyotining Hayitmetov talqinida o'rganilishi nafaqat mumtoz adabiyot tarixini chuqurroq anglashga, balki milliy adabiy merosni ilmiy asosda baholashga ham xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: "Adolat", 1996. – 74 b.
2. Hayitmetov A. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti. – Toshkent: "Fan", 1996. – 161 b.
3. Hayitmetov A. Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari. – Toshkent: "Fan", 1959. – 197 b.
4. Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi. 1- kitob. – Toshkent: O'qituvchi, 1976. – 663 b.
5. Qayumov A. Alisher Navoiy. – Toshkent: "Kamalak", 1991. – 176 b.